



*2024- yil yanvar-oktabr oylari uchun
dastlabki ma'lumot*

TOSHKENT VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

2024- yil yanvar-oktabr oylarida Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 5037,3 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 328,9 mln. AQSH dollariga yoki 7,0 % ga ko'paydi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-oktabr 2024 y., mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **5 037,3** 7,0 %

(2023- y.: 4 708,4)



Saldo

2024- y.: **-1 795,3** (2023- y.: -1 625,0)




Eksport

2024- y.: **1 621,0** 5,1 %

(2023- y.: 1 541,7)


TSA'dagi ulushi, % da



Import

2024- y.: **3 416,3** 7,9 %

(2023- y.: 3 166,7)



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 1 621,0 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 5,1 % ga ko‘paydi) va import hajmi 3 416,3 mln. AQSH dollariga (7,9 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **-1 795,3** mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-oktabr mln. AQSH dollari)

XXR TSA – 1 473,8 Eksport: 508,2 Import: 965,6  29,3 %	Rossiya TSA – 1 324,5 Eksport: 464,3 Import: 860,2  26,3 %	Qozog‘iston TSA – 623,9 Eksport: 106,4 Import: 517,5  12,4 %	Turkiya TSA – 308,9 Eksport: 171,7 Import: 137,2  6,1 %	Belarus TSA – 108,4 Eksport: 15,3 Import: 93,1  2,2 %
Italiya TSA – 80,3 Eksport: 11,4 Import: 68,9  1,6 %	Tojikiston TSA – 81,8 Eksport: 47,1 Import: 34,7  1,6 %	Germaniya TSA – 115,2 Eksport: 6,4 Import: 108,8  2,3 %	O‘irg‘iz Respublikasi TSA – 77,3 Eksport: 33,1 Import: 44,2  1,5 %	Afg‘oniston TSA – 72,1 Eksport: 71,5 Import: 0,6  1,4 %




YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2023- y.	2024- y.
XXR	1204,9	1473,8
Eksport	351,9	508,2
Import	853,0	965,6
Rossiya	1014,2	1324,5
Eksport	427,0	464,3
Import	587,2	860,2
Qozog'iston	723,9	623,9
Eksport	90,8	106,4
Import	633,1	517,5
Turkiya	389,3	308,9
Eksport	242,5	171,7
Import	146,8	137,2
Braziliya	213,7	165,2
Eksport	0,0	0,0
Import	213,7	165,2
Belorus	87,1	108,4
Eksport	18,4	15,3
Import	68,7	93,1
Germaniya	96,5	115,2
Eksport	8,7	6,4
Import	87,8	108,8
Italiya	138,1	80,3
Eksport	16,7	11,4
Import	121,4	68,9
Shveytsariya	7,0	53,4
Eksport	1,7	4,4
Import	5,3	49,0
Tojikiston	81,0	81,8
Eksport	37,2	47,1
Import	43,8	34,7




HUDUDLAR KESIMIDA **TASHQI SAVDO AYLANMASI** *(2024- yil yanvar-oktabr, mln. AQSH doll.)**





TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 45,2 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 1,7 % ga ko‘paydi.



Toshkent viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2023- yilning mos davriga nisbatan 1,7 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 54,8 % ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-oktabr oylarida 2 275,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 699,2 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 1 575,9 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)

Rossiya – 26,3



Qozog'iston – 12,4



Belarus – 2,2



Qirg'iz
Respublikasi – 1,5



Turkmaniston – 0,3



Tojikiston – 1,6



Ozarbajjon – 0,4



Ukraina – 0,4



Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (26,3%), Qozog'iston (12,4%) hamda Belarus (2,2%) davlatlari bilan qayd etildi.




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 905 taga yetdi va ular tomonidan 1 621,0 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 5,1 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-oktabr ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.




TOSHKENT VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI *(yanvar-oktabr, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	1 541,7	1 621,0	91,7	105,1	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	190,0	202,8	102,3	106,7	12,3	12,5
Ichimliklar va tamaki	6,6	12,6	180,6	190,6	0,4	0,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	48,3	53,4	84,4	110,6	3,2	3,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	6,8	25,3	2,5 m.	3,7 m.	0,4	1,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,7	7,9	111,8	4,8 m.	0,1	0,5
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	62,6	80,2	93,9	128,0	4,1	4,9
Sanoat tovarlari	970,3	983,3	84,6	101,3	62,9	60,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	48,2	63,5	91,0	131,7	3,1	3,9
Turli xil tayyor buyumlar	202,9	184,9	127,6	91,2	13,2	11,4
Xizmatlar	4,3	7,1	85,0	166,5	0,3	0,4

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,7 %ni tashkil etib, ulardan yuqori ulush sanoat tovarlari (62,3%), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (11,5%) va turli xil tayyor buyumlar (11,8%) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-oktabr oyida MDH mamlakatlarga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,2 % ga ko'paygan.




MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari, ulushi)

2024- yil yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Turkiya, Qozog'iston, Afg'oniston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 86,4 % ni tashkil etdi.




TOSHKENT VILOYATI EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-oktabr, % da)





TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar-oktabr, mln.AQSH doll.)*





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-okabr oyida 109,5 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 48,3 mln. AQSh dollariga teng 94,9 ming tonnadan ortiq sabzavot shuningdek, 41,1 mln. AQSh dollari qiymatidagi 35,3 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

2024- yil yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan 89,4 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-oktabr, o‘zgarish sur‘atlari, qiymatga nisbatan)



Meva va
rezavorlar
35,3 ming tonna
41,1 mln.
AQSH dollari

Uzum
12,7 ming
tonna
12,9 mln.
AQSH dollari

Yeryon-g‘oqlar
0,7 ming tonna
1,0 mln. AQSH
dollari

Sabzavotlar
94,9 ming tonna
48,3 mln. AQSH
dollari



TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI




2024- yilning yanvar-oktabr oylarida import hajmi 3 416,3 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 107,9 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (28,0%), sanoat tovarlari (16,2%) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (2,3%) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 249,6 mln. AQSH dollariga ko'paydi va 3 416,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 25,3 mln. AQSH dollariga yetdi.



TOSHKENT VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-oktabr, yillar kesimida)


XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	3 166,7	3 416,3	115,0	107,9	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	535,8	624,5	93,2	116,6	16,9	18,3
Ichimliklar va tamaki	4,7	7,5	102,7	158,0	0,1	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	436,2	450,7	83,7	103,3	13,8	13,2
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	211,8	318,7	185,6	150,4	6,7	9,3
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	77,9	78,8	160,4	101,1	2,5	2,3
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	324,7	296,9	109,1	91,4	10,3	8,7
Sanoat tovarlari	506,5	553,2	104,3	109,2	16,0	16,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	988,3	955,9	166,4	96,7	31,2	28,0
Turli xil tayyor buyumlar	76,3	58,5	74,5	76,7	2,4	1,7
Boshqa tovarlar	0,6	46,3	15,4	72,8 m.	0,0	1,4
Xizmatlar	3,9	25,3	53,5	6,8 m.	0,1	0,7

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.



2024- yil yanvar-oktabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 46,1 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,3 % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-oktabr oyida yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Italiya, Belarus va Germaniya) jami importning 80,5 % ni tashkil etdi.



TOSHKENT VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-oktabr. % da)





TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-oktabr, mln. AQSH doll.)

